

## “Comply or explain” (“rioya qil yoki tushuntir”) xalqaro tamoyiliga asosan e’lon (Kuzatuv kengashiga mustaqil a’zolari kiritish)

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/announcement/independent-members>

“O’zkimyosanoat” AJ Korporativ boshqaruv kodeksining 14-bandiga muvofiq kodeksning muayyan tavsiyalariga rioya etish imkoni mavjud bo’lmaganda, AJ “comply or explain” (rioya qil yoki tushuntir) xalqaro tamoyiliga rioya qilgan holda sabablarini to’liq oshkor etadi.

<b>Kodeks tavsiyalariga rioya qilinmagan yo’nalishlar</b>	<b>Tushuntirishlar</b>
<b>Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga amal qilinishini baholash</b>	

<p>Kuzatuv kengashiga mustaqil a'zolarni kiritish.</p>	<p>Korporativ boshqaruv Kodeksining 6.2-bandiga asosan AJ "Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizom" talablariga muvofiq kuzatuv kengashi tarkibiga bittadan kam bo'lmagan (ammo ustavda ko'zda tutilgan kuzatuv kengashi a'zolari sonining 15 foizidan kam bo'lmagan) mustaqil a'zo kiritadi.</p> <p>Bugungi kunda Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibida mustaqil a'zolar mavjud emas.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 76<sup>1</sup>-moddasida Aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan jamiyatning, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga kamida bir nafar mustaqil a'zo kiritilishi kerak. Bunda kuzatuv kengashining mustaqil a'zoriga nomzodlar, agar jamiyat ustavida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan, qoida tariqasida, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishi uchun tanlov asosida ko'rsatilishi belgilangan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-son Farmoni talablariga muvofiq jamiyat ustavining 8.32-bandiga asosan Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga ustavda nazarda tutilgan kuzatuv kengashi a'zolaridan kamida 30 foizi mustaqil a'zolar - xalqaro tanlov asosida chet ellik soha mutaxassislarini (jumladan, vatandoshlarni) faol jalb etish orqali malakali xalqaro mutaxassislar kiritilishi belgilangan.</p> <p>Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolarni jalb qilish bo'yicha tanlov hujjatlari, xususan, texnik topshiriqlar ishlab chiqildi hamda o'tkazilgan xalqaro tanlov natijalariga ko'ra kelib tushgan nomzodlar bo'yicha ma'lumotnomalar yagona aksiyadorga kiritildi.</p> <p>2022-yilda O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 76<sup>1</sup>-moddasiga muvofiq kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari mezonlariga javob beradigan nomzodlar aksiyadorlar tomonidan ko'rsatilmaganligi sababli "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolari kiritilmaganini ma'lum qiladi.</p>
--	--